

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "HOME/UY" SUBKONSEPTINING
AKSIOLOGIK VA KOGNITIV VERBALLASHUVI

Ismatullayeva Iroda Izatullayevna

Toshkent davlat transport universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22676263>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida "Home/Uy" subkonseptining kognitiv, aksiologik va lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda "Home/Uy" subkonsepti "Motherland/Vatan" makrokonseptining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralib, uning nominativ va mazmuniy maydonlari, maqol va iboralarda ifodalanishi, shuningdek, shaxsiy makon, oila, xavfsizlik, osoyishtalik, tegishlilik va Vatanga muhabbat kabi konseptual belgilar bilan munosabati yoritiladi. Ingliz tilida "home" tushunchasi, asosan, shaxsiy makon, oilaviy yaqinlik, xavfsizlik va ruhiy osoyishtalik bilan bog'lanishi kuzatilsa, o'zbek tilidagi "uy" tushunchasi oila, qarindoshlik, tug'ilgan joy, el-yurt, Vatan va milliy qadriyatlar bilan yanada kengroq semantik-aksiologik aloqaga ega ekanligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ikki tildagi "Home/Uy" subkonseptining universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: konsept, subkonsept, "Motherland/Vatan", "Home/Uy", lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, aksiologiya, lingvomadaniyat, paremiologiya, nominativ maydon.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ когнитивных, аксиологических и лингвокультурологических особенностей субконцепта «Home/Uy» в английском и узбекском языках. В исследовании субконцепт «Home/Uy» рассматривается как одна из составных частей макроконцепта «Motherland/Vatan», освещаются его номинативное и понятийное поля, выражение в пословицах и фразеологизмах, а также взаимосвязь с такими концептуальными признаками, как личное

пространство, семья, безопасность, спокойствие, принадлежность и любовь к Родине. В то время как в английском языке понятие «home» в основном связывается с личным пространством, семейной близостью, безопасностью и душевным спокойствием, установлено, что в узбекском языке понятие «уй» имеет более широкую семантико-аксиологическую связь с семьей, родством, местом рождения, народом, Родиной и национальными ценностями. Результаты исследования позволяют определить универсальные и национально-культурные особенности субконцепта «Home/Uy» в обоих языках.

Ключевые слова: *концепт, субконцепт, «Motherland/Vatan», «Home/Uy», лингвокультурология, когнитивная лингвистика, аксиология, лингвокультура, паремиология, номинативное поле.*

Abstract: *This article provides a comparative analysis of the cognitive, axiological, and linguacultural characteristics of the "Home/Uy" subconcept in English and Uzbek languages. The study considers the "Home/Uy" subconcept as an integral component of the "Motherland/Vatan" macroconcept, highlighting its nominative and semantic fields, expression through proverbs and idioms, as well as its relationship with conceptual attributes such as personal space, family, security, tranquility, belonging, and love for the Motherland. While in the English language the concept of "home" is primarily associated with personal space, family closeness, safety, and emotional tranquility, in the Uzbek language the concept of "uy" is revealed to possess a broader semantic-axiological connection with family, kinship, place of birth, community, Motherland, and national values. The results of the study allow for the identification of universal and national-cultural features of the "Home/Uy" subconcept in both languages.*

Keywords: *concept, subconcept, "Motherland/Vatan", "Home/Uy", linguaculturology, cognitive linguistics, axiology, linguaculture, paremiology, nominative field.*

KIRISH

Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda til birliklarini insonning olamni idrok etishi, baholashi va konseptuallashtirishi bilan bog'liq holda o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada konseptlar xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, ijtimoiy qarashlari hamda individual va kollektiv tafakkurida shakllangan bilimlarning verbal ifodasi sifatida talqin qilinadi.

“Motherland/Vatan” konsepti insonning makon, xalq, oila, tarix, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini birlashtiruvchi murakkab konseptual tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur konseptning mazmuniy tuzilishini tashkil etuvchi muhim subkonseptlardan biri “Home/Uy”dir. Uy insonning makon haqidagi tasavvurining eng yaqin va boshlang'ich nuqtasi bo'lib, shaxsiy hayot, oila va xavfsizlik bilan bir qatorda kengroq ijtimoiy-madaniy tushunchalarning shakllanishiga ham asos bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarida “Home/Uy” tushunchalari o'zaro semantik yaqinlikka ega bo'lsa-da, ularning konseptual mazmunida milliy-madaniy tafovutlar mavjud. Har ikki lingvomadaniyatda uy insonning yashash joyi va xavfsiz makoni sifatida tushuniladi. Biroq o'zbek tilidagi “uy” tushunchasi ko'pincha oila, qarindoshlik, tug'ilgan joy, el-yurt va Vatan haqidagi tasavvurlar bilan bevosita bog'lanadi. Ingliz tilidagi “home” esa ko'proq shaxsiy makon, ruhiy osoyishtalik, individual erkinlik va hissiy yaqinlikni ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Shu jihatdan “Home/Uy” subkonseptining qiyosiy o'rganilishi “Motherland/Vatan” konseptining universal va milliy-madaniy xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

TADQIQOT MATERIALI VA METODLARI

Tadqiqot materialini ingliz va o'zbek tillaridagi “Home/Uy” tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar, frazeologik birliklar, maqol va matallar hamda badiiy matnlarda uchraydigan kontekstual birliklar tashkil etadi. Tadqiqot davomida izohli va etimologik lug'atlar, paremiologik manbalar hamda badiiy matnlardan foydalanildi.

Tahlil jarayonida tavsifiy, qiyosiy, konseptual, definitson, leksikografik, paremiologik va kontekstual-pragmatik metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali “Home/Uy” subkonseptining nominativ maydoni, uning asosiy konseptual belgilari hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi aksiologik xususiyatlari aniqlandi.

TAXLIL

Kognitiv nuqtayi nazardan uy insonning olam haqidagi tasavvurini shakllantiruvchi dastlabki makonlardan biridir. Insonning bolalik davri, oilaviy munosabatlari, xavfsizlik hissi va kundalik tajribasi bevosita uy makoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli “home/uy” nafaqat fizik makonni, balki insonning mazkur makon bilan bog‘liq bilimlari, his-tuyg‘ulari va qadriyatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi.

“Home/Uy” subkonseptining universal qatlamida yashash joyi, xavfsizlik, oila, osoyishtalik, tegishlilik va hissiy yaqinlik kabi belgilar mavjud. Ushbu belgilar turli lingvomadaniyatlarda turlicha darajada faollashadi.

Ingliz tilidagi “home” birligi, avvalo, insonning o‘zini erkin va xavfsiz his qiladigan shaxsiy makonini bildiradi. Bu tushunchada uy faqat bino yoki yashash joyi emas, balki insonning ruhiy holati va hissiy bog‘liqligi bilan chambarchas aloqador makon sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “There is no place like home”, “East or west, home is best” kabi maqollarda uy inson uchun eng aziz va qulay makon sifatida baholanadi.

“Home is where the heart is” iborasida esa uy tushunchasining fizik makondan tashqariga chiqib, insonning hissiy tegishlilik holatini ifodalashi kuzatiladi. Demak, ingliz lingvomadaniyatida “home” tushunchasining konseptual yadrosida shaxsiy makon, xavfsizlik va hissiy yaqinlik kabi belgilar muhim o‘rin egallaydi.

Ingliz tilidagi paremiologik birliklar tahlili “home” tushunchasining bir necha konseptual yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalishda home insonning doimiy va aziz yashash joyi sifatida tasvirlanadi. “There is no place like home” va “East or west, home is best” kabi birliklarda insonning o‘z uyiga bo‘lgan ijobiy munosabati ifodalanadi.

Ikkinchi yo'nalishda "home" insonning hissiy va ruhiy holati bilan bog'lanadi. "Home is where the heart is" iborasi bunga yaqqol misol bo'lib, uy tushunchasi insonning qalban bog'langan joyi sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, home tushunchasi geografik koordinatalar bilan cheklanmay, subyektiv hissiy makonni ham anglatadi.

Uchinchi yo'nalishda home oila tushunchasi bilan bog'lanadi. "A house is not a home" kabi iboralarda uy va home o'rtasidagi konseptual farq namoyon bo'ladi. Bunda house ko'proq moddiy bino, home esa oila, mehr, hissiy yaqinlik va insoniy munosabatlar mavjud bo'lgan makon sifatida qaraladi.

"Men make houses, women make homes" kabi birliklarda esa home tushunchasining ijtimoiy va oilaviy mazmuni kuchayadi. Demak, ingliz tilida home ko'pincha insonning shaxsiy va oilaviy hayoti kechadigan, xavfsizlik va ruhiy osoyishtalikni ta'minlaydigan makon sifatida konseptuallashtiriladi.

O'zbek lingvomadaniyatida "uy" tushunchasi insonning shaxsiy yashash makoni bilan bir qatorda oila, qarindoshlik, tug'ilgan joy va el-yurt haqidagi tasavvurlarni ham qamrab oladi. O'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashida uy oilaning moddiy va ma'naviy markazi sifatida baholanadi.

O'zbek tilidagi "O'z uying – o'lan to'shaging" maqolida insonning o'z uyiga bo'lgan munosabati, o'z makonining qadri va unga tegishlilik hissi ifodalanadi. Bunday birliklarda uy inson uchun tabiiy va aziz makon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, o'zbek maqollarida uy tushunchasi bevosita yurt va Vatan tushunchalariga o'tuvchi semantik aloqaga ega. "O'z yurtning qadri o'zga yurtda bilinar", "Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas", "Har kimning o'z eli – o'ziga shirin", "Qush ham ketsa keladi, o'z elini sevadi" kabi paremiologik birliklarda shaxsiy makondan kengroq bo'lgan ijtimoiy va milliy makonga tegishlilik g'oyasi ifodalanadi.

Bunda "uy" tushunchasi insonning tug'ilgan joyi va o'z eliga bo'lgan munosabati bilan uzviy bog'lanadi. Shu sababli o'zbek tilida uy va Vatan

tushunchalari o'rtasidagi konseptual masofa ingliz tilidagiga nisbatan qisqaroq ekanligini ko'rish mumkin.

Aksiologik jihatdan "Home/Uy" subkonsepti har ikki tilda yuqori ijobiy bahoga ega. Uy xavfsizlik, osoyishtalik, mehr-muhabbat va tegishlilikni ta'minlaydigan qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur qadriyatlarning lingvomadaniy mazmunida muayyan tafovutlar mavjud.

Ingliz tilida home ko'proq individual va shaxsiy qadriyatlar bilan bog'lanadi. Insonning o'z uyida erkin bo'lishi, shaxsiy hayoti daxlsizligi, tinchlik va ruhiy qulaylik kabi belgilar faol qo'llanadi. Shu jihatdan home shaxsning ichki dunyosi va individual hayoti bilan kuchli bog'langan.

O'zbek tilida esa "uy" tushunchasining aksiologik mazmuni oilaviy va kollektiv qadriyatlar bilan kengayadi. Uy oila, ota-ona, farzandlar, qarindoshlar, mehmondo'stlik va avlodlar davomiyligi bilan bog'lanadi. Shuningdek, uy insonning tug'ilib-o'sgan joyi va o'z yurtiga bo'lgan munosabatining ramziy ifodasiga aylanishi mumkin.

O'zbek paremiologiyasida uy va Vatan o'rtasidagi munosabat yanada yaqqol ko'rinadi. "Vatanning vayronasi – umrning g'amxonasi", "Eldan ayrilguncha, jondan ayril", "O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l" kabi maqollarda o'z makoni, eli va Vatanidan ayrilish salbiy aksiologik holat sifatida baholanadi.

Shuningdek, "Er yigit o'zi uchun tug'ilar, eli uchun o'lar", "Dushmanga nafrati bo'lmaganning Vatanga muhabbati bo'lmas" kabi birliklarda uy va yurtga tegishlilik g'oyasi fidoyilik, sadoqat va himoya qilish kabi qadriyatlar bilan bog'lanadi.

"Home/Uy" subkonsepti "Motherland/Vatan" konseptining shakllanishida muhim semantik va kognitiv asoslardan biri hisoblanadi. Insonning Vatan haqidagi dastlabki tasavvuri ko'pincha o'z uyi, oilasi va tug'ilgan joyi haqidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Shu ma'noda uy mikromakon sifatida Vatan makrokonseptiga olib boruvchi konseptual vosita vazifasini bajaradi.

Ingliz tilida home va country tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular odatda turli konseptual qatlamlarni ifodalaydi. Home shaxsiy va hissiy makonni, country esa hududiy, siyosiy va geografik makonni ifodalashga moyildir. "Motherland" tushunchasi esa ushbu ikki qatlamning ayrim jihatlarini birlashtirib, milliy va tarixiy mazmunni kuchaytiradi.

O'zbek tilida "uy", "yurt", "el" va "Vatan" birliklari o'rtasidagi semantik aloqa nisbatan zichroqdir. Uy nafaqat shaxsiy makon, balki oila va avlodlar makoni sifatida ko'riladi; yurt esa shaxsning o'z eli va tug'ilgan joyini anglatadi; Vatan esa mazkur makonlarning kengaygan, tarixiy va milliy-aksiologik shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, ingliz tilida "Home"dan "Motherland"ga o'tish ko'proq shaxsiy makondan milliy makonga konseptual kengayish tarzida kuzatilsa, o'zbek tilida "Uy" – "Yurt" – "Vatan" qatori shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va milliy makonlarning o'zaro uzviy bog'langan tizimini hosil qiladi.

Qiyosiy tahlil natijasida "Home/Uy" subkonseptining har ikki tilda umumiy va farqli konseptual belgilar asosida shakllanishi aniqlandi. Har ikki lingvomadaniyatda uy inson yashaydigan makon, xavfsizlik va osoyishtalik manbai, oila va hissiy yaqinlik bilan bog'liq joy sifatida qoraladi.

Biroq ingliz tilidagi "home"ning konseptual mazmunida shaxsiy makon, individual erkinlik, daxlsizlik, ruhiy qulaylik va subyektiv hissiy bog'liqlik nisbatan faolroqdir. O'zbek tilidagi "uy" esa oila, qarindoshlik, mehmondo'stlik, tug'ilgan joy, el-yurt va milliy qadriyatlar bilan kengroq aloqaga ega.

Mazkur farq ikki lingvomadaniyatning makon va tegishlilik haqidagi konseptual qarashlarida ham namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi home ko'pincha "inson o'zini o'zi kabi his qiladigan joy" sifatida talqin qilinsa, o'zbek tilidagi uy "inson o'z oilasi va o'z odamlari bilan bog'langan makon" sifatida konseptuallashtiriladi.

Bundan tashqari, o'zbek paremiologik materiallarida uy tushunchasining Vatanparvarlik, sadoqat, fidoyilik va Vatan himoyasi kabi yuqori darajadagi

aksiologik birliklarga o'tishi ko'proq kuzatiladi. Ingliz tilida esa home ko'proq individual farovonlik, oilaviy yaqinlik va shaxsiy xavfsizlik bilan bog'langan.

Demak, "Home/Uy" subkonsepti universal jihatdan xavfsizlik, yashash joyi, oila va tegishlilik kabi belgilarni birlashtirsa-da, milliy-madaniy qatlamda turlicha mazmun kasb etadi. Ingliz lingvomadaniyatida individual-shaxsiy komponentlar, o'zbek lingvomadaniyatida esa oilaviy-kollektiv va milliy komponentlar nisbatan ustunlik qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari "Home/Uy" subkonseptining "Motherland/Vatan" konseptual tizimidagi o'rini belgilash imkonini berdi. Mazkur subkonseptning mazmuni faqat yashash joyi bilan chegaralanmay, insonning o'z makoniga bo'lgan munosabati, hissiy bog'liqligi va ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasini ham ifodalaydi.

Ingliz tilida home konseptining markazida shaxsiy makon va individual tajriba turadi. Uy inson uchun xavfsiz, osoyishta va hissiy jihatdan yaqin makon sifatida baholanadi. Shu sababli ingliz tilidagi paremiologik birliklarda home ko'pincha shaxsning ichki dunyosi bilan bog'lanadi.

O'zbek tilida esa uy tushunchasi oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'langan. Uy oilaning markazi, avlodlar davomiyligi va milliy qadriyatlarning saqlanish makoni sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, "uy" tushunchasidan "yurt" va "Vatan" tushunchalariga semantik-kognitiv o'tish imkoniyati yuqori.

Shu jihatdan "Home/Uy" subkonseptining qiyosiy tahlili nafaqat ikki tildagi uy haqidagi tasavvurlarni, balki ingliz va o'zbek xalqlarining shaxs, oila, makon va Vatan o'rtasidagi munosabatlarni qanday konseptuallashtirishini ham ochib beradi.

XULOSA

Ingliz va o'zbek tillarida "Home/Uy" subkonsepti insonning makon, oila, xavfsizlik va tegishlilik haqidagi tasavvurlarini verbal ifodalovchi muhim

konseptual birlik hisoblanadi. Har ikki tilda uning universal asosini yashash joyi, oila, xavfsizlik, osoyishtalik, hissiy yaqinlik va tegishlilik kabi belgilar tashkil etadi.

Shu bilan birga, ushbu subkonseptning milliy-madaniy mazmunida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilida “home” ko‘proq shaxsiy makon, individual erkinlik, daxlsizlik, ruhiy osoyishtalik va hissiy yaqinlik bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida “uy” tushunchasi oila, qarindoshlik, mehmondo‘stlik, tug‘ilgan joy, el-yurt va Vatan kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek lingvomadaniyatida “uy”ning “yurt” va “Vatan” bilan semantik-kognitiv aloqasi ayniqsa kuchli bo‘lib, mazkur bog‘liqlik Vatanga muhabbat, sadoqat, fidoyilik va uni himoya qilish kabi aksiologik mazmunlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Ingliz lingvomadaniyatida esa “home”dan “Motherland”ga o‘tishda shaxsiy makondan milliy va hududiy makonga konseptual kengayish ko‘proq kuzatiladi.

Shunday qilib, “Home/Uy” subkonsepti “Motherland/Vatan” makrokonseptining mazmuniy tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Uning qiyosiy-kognitiv tahlili ingliz va o‘zbek tillarida makon, oila, shaxsiy identifikatsiya va milliy mansublikning konseptuallashtirilishidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arutyunova N.D. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999.
2. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018.
3. Karasik V.I. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: Гнозис, 2002.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.